

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi O'RQ-547-son Qonuniga muvofiq, "KREDITOMAT TASHKENT MIKROMOLIYA TASHKILOTI" MCHJ XK Mikromoliya tashkilotiga (keyingi o'rinlarda – MMT) (ro'yxatdan o'tgan manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Yakub Kolas ko'chasi, 4-54) o'z shaxsiy ma'lumotlarimni avtomatlashtirilgan usulda, shuningdek avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda qayta ishlashga rozilik beraman.

Mazkur rozilik shaxsiy ma'lumotlarimni to'plash, yozib olish, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish, to'ldirish), olish, foydalanish, uchinchi shaxslarga, shu jumladan xorijiy davlatlar hududiga uzatish, tarqatish, MMTning internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytlari sahifalarida ochiq joylashtirish, egasizlantirish va yo'q qilishni o'z ichiga oladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;

MMT mijozlari va MMT veb-sayti tashrif buyuruvchilari oldidagi shartnomaviy hamda qonun bilan yuklatilgan majburiyatlarni bajarishda ishtirok etish;

MMT faoliyatini ta'minlash;

MMT bilan tuzilgan shartnomalar bilan bevosita bog'liq munosabatlarni tartibga solish.

Mazkur rozilik berilayotgan shaxsiy ma'lumotlarim quyidagilarni o'z ichiga oladi va/yoki o'z ichiga olishi mumkin:

familiya, ism, otasining ismi; tug'ilgan sana va joyi; jinsi; lavozim nomi; kasbi; oilaviy ahvoli va oila tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar; shaxsni tasdiqlovchi asosiy hujjat to'g'risidagi ma'lumotlar; ro'yxatdan o'tgan manzil va amaldagi yashash manzili; telefon raqami; elektron pochta manzili; MMTga murojaat qilish jarayonida oshkor etilishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsiy ma'lumotlar.

Mazkur rozilik muddatsiz ravishda, u bekor qilingunga qadar amal qiladi.

MMT shartnomalar amal qilish muddati tugaganidan keyin ham, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va boshqa qo'llaniladigan qonunchilikda nazarda tutilgan muddatlar davomida, har qanday holatda ham shaxsiy ma'lumotlar qayta ishlanayotgan maqsadga erishilgunga qadar shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashni davom ettirishga haqli.

Men mazkur rozilikda ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga bergan roziligimni MMTga erkin shakldagi ariza taqdim etish orqali bekor qilishim mumkinligi haqida xabardorman.